

“OQ DO'NGPESHONA “ BALIG'I PARAZITLARI

Usmanova Nilufar Mamatvali qizi

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi baliqchilik tarmog'ida xususiylashtirish va xususiylashtirish mulkchilikni rivojlantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, baliq ovlash va baliqchilik faoliyatini tashkil etishda bozor prinsiplariga va mexanizmlariga joriy etish, mahsulot monopoliyasini chiqarish hamda raqobat muhitini shakllantirish, baliq va baliq mahsulotlarini sotishni tartibga solish maqsadida 2003 yil 13 fevralda Vazirlar Mahkamasining 350-sonli “Baliqchilik tarmog'ida monopoliyani chiqarish va xususiylashtirilishini chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlarini qabul qilinishi va bu qarorlarga 2004, 2010 yillarda o'zgartirishlar kiritilishi natijasida baliqchilik xo'jaliklariga tadbiriq qilingan [1]. Hozirgi kunda kelib, O'zbekiston suv havzalarida baliq yetishtirish va rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Tabiiy va sun'iy suv havzalari xo'jalik tarzida foydalanayotgan paytda baliq zaxiralarini tiklash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Baliq zaxiralarini O'zbekiston iqlim sharoitiga moslashtirilgan baliq turlari bilan ko'paytirish choralari ko'rilmoqda.

Oq do'ngpeshona baliği O'zbekiston suv havzalariga o'tgan asrning 60–70 yillarida Rossiyadagi Amur daryosidan olib kelib iqlimlashtirilgan. Bu baliq gala bo'lib yashovchi o'rta o'lchamdagi chuchuk suv balig'idir. Natijada, ular bilan birga O'zbekiston suv havzalarida mavjud bo'lmagan ko'plab baliq parazitlari ham kirib kelgan. Oq do'ngpeshona baliği O'zbekiston suv havzalariga o'tgan asrning 60–70 yillarida Rossiyadagi Amur daryosidan olib kelib iqlimlashtirilgan. Natijada, ular bilan birga O'zbekiston suv havzalarida mavjud bo'lmagan ko'plab baliq parazitlari ham kirib kelgan. Toshkent viloyati havzalaridan tutilgan 400–700 grammlı 8 ta oq do'ngpeshona baliği ixtioparazitologik tekshiruvdan o'tkazildi. Baliqlarning kameralı qayta tekshiruvi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti gidrobiologiya laboratoriyasi tomonidan amalga oshirildi.

Aniqlanishicha, baliqlarda tekis qurtlar (Platyhelminthes) tipiga mansub monogenetik so'rg'ichlilar (Dactylogyridae) oilasiga kiruvchi Dactylogyrus vastator paraziti bilan zararlanish holatlari kuzatildi. Bir baliqning o'pkalarida 5 tagacha gelmint mavjudligi aniqlandi. Ma'lumki, baliqlarning oziqlanish xususiyatlari ularning turli xil parazitlar bilan zararlanish darajasini ham belgilab beradi. Bunda avvalo baliq tanasining mexanik jarohatlanishi, shuningdek, parazitlar tomonidan ajratiladigan toksik moddalarning ta'siri katta. Ayniqsa, Dactylogyrus turlari baliqning jabrasi (g'illasi)ga joylashib, u yerda qon so'rib, jabrani zararlaydi va nafas olish jarayonini qiyinlashtiradi. Oq do'ngpeshona baliqlarida Dactylogyrus dan tashqari yana bir qator parazit turlarining mavjudligi aniqlanmoqda. Shuning uchun baliqlarni har yili sanitariya nazoratidan o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Baliqlar suv havzalaridan tutilgan zahoti ularni maxsus 5% li sho'r suv eritmasida 5 daqiqa davomida saqlab, keyin toza suvda yuvish tavsiya etiladi. Bu jarayon parazitlarning katta qismini yo'q qiladi. Agar baliqlarda parazitlar ko'p bo'lsa, ularni bir muddat karantin sharoitida saqlash kerak. Baliqlarni umumiy havzaga qo'shishdan oldin, sog'lom baliqlar bilan alohida suvda saqlab, harorat va oziqlanish sharoitini yaxshilash lozim. Bundan tashqari, baliqlarni parazitsiz holatda saqlash uchun suv havzalari tozaligiga e'tibor berish, ortiqcha organik moddalarning to'planishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Xulosa qilib aytganda, baliqlarda parazitlarning paydo bo'lishini kamaytirish uchun ularning yashash joyini toza saqlash, to'g'ri oziqlantirish va profilaktika ishlarini o'z vaqtida o'tkazish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori Baliqchilik tarmog'ida monopoliyadan chiqarish va xususiylashtirishni chuqurlashtirish chora tadbirlari tog'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2003y, 15-16-son 127-modda 2004y,
2. Dadayev S., Abdurahmonova G. - Umumiy parazitologiya - Tashkent 2013. 389-s

1. В.А. Падалкин. Паразиты и болезни растительноядных рыб Дальневосточного комплекса в прудовых хозяйствах. Сб. науч. трудов ВНИИПРХ. – Москва, 1973. Т.24. С.4–129.